

O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZMNING XORIJ TAJRIBALARI.

Robiyaxon Erkinova Baxodir qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi

robiyaxonerkinova010@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining eng ahamiyatlisi bo`lgan tibbiyat turizmi, uning yaxshi va yomon jihatlari, rivojlanish darajasi, davlatga iqtisodiy foyda keltirishi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, sayyoh, bemor, tibbiyat, tashkilot, iqtisodiy va ijtimoiy foyda, davlat, olimlar, tibbiy xizmat, assotatsiya, rekreatsiya.

Аннотация: В данной статье описан медицинский туризм, который является важнейшей частью туризма, его хорошие и плохие стороны, уровень развития, экономическая выгода для государства.

Ключевые слова: туризм, турист, пациент, медицина, организация, экономическая и социальная выгода, государство, ученые, медицинское обслуживание, объединение, отдых.

Abstract: This article describes medical tourism, which is the most important part of tourism, its good and bad aspects, level of development, economic benefit to the state.

Key words: tourism, tourist, patient, medicine, organization, economic and social benefit, state, scientists, medical service, association, recreation.

Bizga ma`lumki, bugungi kunda jadal rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bu turizm sohasidir. Davlat rivojlanishida turizm kata ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tibbiy turizm sohasining o`rni juda muhim. Iqtisodiyotni transformatsiyalashning ahamiyati kumdan kunga ortib borayotganligi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblangan turizmni yanada rivojlantirishni ob'ektiv bo`lgan muhim zaruratga aylantirmoqda. Zero, turizm dunyodagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes turlaridan biri. Shuningdek, u bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi va dunyoning ko'pgina mamlakatlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan strategik tarmoqqa aylandi. Turizm

nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan, hattoki, nisbatan past rivojlanish darajasidagi mamlakat va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Turizm sohasida yaratilgan bitta yangi ish o'rni sanoat tarmog'iga nisbatan 20 barobarga arzonga tushadi, qaysidir mamlakatga tashrif buyuruvchi har 30 ta sayyoh bevosita bitta hamda bilvosita ikkita yangi ish o'rinalarini barpo qilishga imkoniyat yaratadi.

Butunjahon turistik tashkiloti ya`ni UNWTO bosh kotibi Zurab Pololikashvilining ta'kidlashicha, "Dunyo bo'y lab, har qanday rivojlanish darajasidagi mamlakatlarda, millionlab ish o'rnlari va korxonalar kuchli va rivojlangan turizm sohasiga bevosita bog'liqdir. Turizm, shuningdek, tabiiy va madaniy merosni himoya qilishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib, ularni kelajak avlodlar bahramand qilishlari uchun saqlab qolmoqda"[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga rejalashtirilgan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni yuzasidan mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi [2]. Ushbu strategiyaning 55-maqsadi aynan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish orqali turizm sohasi daromadini sezilarli darajada oshirish va 35-maqsadda O'zbekiston bo'y lab sayohat qilish dasturi doirasida mahalliy sayyoohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda publikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 millionga yetkazish vazifalari qo'yilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirishda, albatta, tibbiy turizm muhim ahamiyatga ega.

Amerikalik olimlar M. Bookman va K. Bookmanlarning tibbiy turizmga bergen ta'riflariga asosan - o'z sog'lig'ini yaxshilash maqsadida sayohatlar va xizmatlar savdosini umumlashtirgan iqtisodiy faoliyat bo'lgan ikkita sector mavjud: tibbiyot va turizm [3].

Rassiyalik olim G. Shekin ilmiy tadqiqotlaridan birida turizmda tibbiy turizmning o'rni juda katta ekanligiga e'tabor qaratib, "tibbiy turizm - turistik xizmat ko'rsatish orqali tibbiy yordam ko'rsatish maqsadi bo'lgan turistik faoliyat turi" deb ta'rif berib ketgan[4].

Rossiya tibbiy turizm assotsiatsiyasining tibbiy turizmga bergan ta'rifiga ko'ra - bu sayohatning bir turihisoblanib, uning maqsadi sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlarni olishdan iborat [5].

Tibbiy turizm- so'nggi paytlarda turizm va rekreatsiyadagi урфа аylangan yo'nalishlardan biri bo'lib kelayapdi. Tibbiy turizm - bu sayyoqlik sohasidagi davolanishni chet elda dam olish bilan birlashtirish imkonini beruvchi yo'nalish hisoblanadi. Chet eldan kelgan sayyoqlar va bemorlarga eng zamonaviy dunyoga mashhur tibbiyot markazlarida professional darajada tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Keng ma'noda oladigan bo`lsak, tibbiy turizmni rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan bozorlarning yagona tizimiga bog'langan tibbiyot sanoati va mehmondo'stlik sohasi, jumladan, nafaqat tibbiyot muassasalari, balki turli biznes tarmoqlari - sug'urta, bank, yuridik yordam, transport kabi turli sohalar bilan bevosita bog`langan bo`ladi.

Hozirgi davrda tibbiy xizmatlarning jahon iqtisodiyoti allaqachon o'z infratuzilmasiga ega ya`ni tibbiy boshqaruv,akkreditatsiya agentliklari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar, tibbiy sayohat bo'yicha mutaxassislarga ega.

Davolanish maqsadidagi boshqa yurtlardan kelgan sayyoqlar ,asosan, ikki xil tarzda sayohatni amalga oshirishadi. Turagentliklar yoki tibbiyot uyushmalari yordamida dam olish markazlariga yoki sanatoriya-kurort tashkilotlariga bog'liq bo`lgan holda turizmni amalga oshirishadi. Moliyaviy inqiroz sharoitida ham tibbiy turizm rivojlanmoqda, shu bilan birga, milliy sog'liqni saqlash tizimlariga hamda sug'urta kompaniyalari faoliyatiga kundan kunga kuchayib borayotgan bir ta'sirni ko'rsatmoqda. Ular mijozlarni xorijiy klinikalarda davolash maqsadida to'lashni afzal ko'rishadi. Jahon iqtisodiy raqobati davrida tibbiy turizm fenomeni tibbiyotni yangicha texnologiyalar va bemorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun shiddat bilan rivojlanishiga sabab bo`lmoqda.

Hozirgi kunimizda millionlab insonlar tibbiy muolajalar va dam olishni birlashtirish uchun mamlakatlar va mintaqalar bo'yabsayohat qilishni avfzal ko'rishmoqda. Bunday muhim migratsiya tashkilotchi mamlakat yoki mintaqalari iqtisodiyotiga katta iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Dastlab ijobjiy o'zgarishlar mehnat

iqtisodiyotiga ta'sir ko`rsatadi. Shuni ta`kidlash joizki, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o'rnlari yaratilmoqda shu bilan birga sayyohlik majmuasi infratuzilmasi tobora yaxshilanmoqda va turizm sifati yaxshilanmoqda. Mijozlarga xizmat ko'rsatish, mintaqaning to'lov balansi va boshqa ko'plab mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham mavjud.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuqori cho`qqiga olib chiqishda turizmning o'mi juda muhim. Tibbiy turizm esa bugungi kunda jadal rivojlanib kelayapdi. Turizm sektorining katta qismi tibbiy turizmning ulushi hisoblanadi. So'ngi kunlarda kasalliklarning ko'payishi asosan ekologiya kundan kunga zararlanayotgan ayni paytda sog'lomlashuvchi sanatoriya-kurort tashkilotlari, tibbiyot muassalari, shuningdek, og'ir operatsiyalar uchun bu turizm turi juda muhim ahamiyatga ega. Bu holat ichki va tashqi tibbiy turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholi farovonligini yaxshilash maqsadida yaxshi muvaffaqiyatlarga erisha oladigan mintaqaviy hamda federal hokimiyat organlari tarafidan biznes strategiyasi va davlat siyosatida hisobga olinishi kerak[6].

Tibbiy turizmning xavfli tarafi shundaki, davolanish o'tkaziladigan mamlakatdagi mavjud bo'lgan infektsiyalarni yuqtirish ehtimoli. Masalan, blaNDM-1 geniga ega bakteriyalar Angliya va AQShga Hindiston va Pokistondan yuqtirilgan va buning natijasida boshqa mamlakatlarga ham olib kelingan. Rossiyada ichki tibbiy turizmning eng ko`zga tashlangan va mashhur yo'nalishi - stomatologiya. AOMMT ma'lumotlari shunday deydi, mintaqalarga sayohat qilish orqali davolanishni tejashga intilayotgan rossiyaliklarning ulushi hozirgi paytda 4-6% dan oshmaydi:

Hududlarga sayohatlarning asosiy maqsadi pulni tejashdir va odamlar eng yangi texnologiyalar va yuqori malakali shifokorlarni talab qiladigan murakkab davolanish maqsadida eng ko`p Moskva va Sankt-Peterburgga boradilar.

Tibbiyot turizmi zamonaviy texnalogiya emas. Qadim zamonlarda ham bemorlar eng yaxshi shifokorlardan malakali tibbiy yordamdan foydalanish maqsadida uzoq masofalarni bosib o'tishgan. Chor Rossiyasi davrida esa zodagonlar orasida davolanish uchun suvg'a, ko'pincha Germaniya yoki Chexiyaga borish modasi bor edi va bugungi

kunda Rossiya va MDH mamlakatlarida tibbiy turizm qayta tug'ilishni boshdan kechirmoqda. Ko'p odamlar chet elda davolanishni o'z mamlakatida davolanishga munosib alternative deydi. Kasalliklarni tashxislash va davolash uchun Yevropa, AQSh, Osiyo mamlakatlariga sayohatlar tobora rivojlanib bormoqda buning natijasida, har yili o'n minglab bemorlar tibbiy turizmni tanlaydilar. Bundan ko`rinadiki xorijda davolanish insonlar uchun har taraflama qulay bo`lmoqda ya`ni ham sayohat qilishsa ham davolanishadi. Inson xarakteri odamlarni o'zlari va yaqinlari uchun eng yaxshisini tanlashga undaydi. Tibbiy turizmning rivojlanishi tufayli bemorlar dunyoning eng yaxshi tibbiyot markazlari va shifoxonalarida sifatlari davolanishlari mumkin.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, ba'zida chet elda davolanish bemorga professional tibbiy yordam olishning yagona imkoniyatidir, ayniqsa kamdan-kam uchraydigan kasalliklarda bo`lsa ularni davolash ko'pincha ularning yashash mamlakatida mayjud emas.

Hozirgi paytda Rossiya va MDH mamlakatlari rezidentlari uchun tibbiy turizm sohasida yetakchilar Germaniya va Isroil hisoblanadi, ammo bu bozor asta-sekin kengayib bormoqda va bugungi kunda mashhur yo'nalishlar orasida Singapur, Turkiya, Shveytsariya, Frantsiya va boshqa mamlakatlar bor. Sharqiy Evropaning tibbiy markazlari, masalan Chexiya, Vengriya, Polsha va boshqalar ham yetakchilarga yaqinlashmoqda.

Tibbiy turizmda asosan beshta asosiy rag'bat mayjud:

- tejamkor xizmatlar;
- zamonaviy tibbiy texnologiyalar;
- yuqori malakali tibbiy yordam;
- vaqt omili (o'z mamlakatida davolanishni uzoq kutish bilan);
- boshqa motivatsiyalar, xususan jismoniy shaxslar davolanishni boshqa mamlakatdagi turistik dastur bilan birlashtirish imkoniyatiga qiziqishi yoki bemorlar davolanishning to'liq anonimligidan manfaatdor.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki; tibbiyot turizmi turizm sohasaning eng ahamiyatli turlaridan biri va davlat rivojlanishi hamda iqtisodiy- ijtimoiy jihatlarini

o`stirishida, har taraflama rivojlanishida, sohalarga yangilik kiritishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ko`plab insonlar tibbiyot turizmidan foydalanishi natijasida sog`ligini tiklashi shu bilan birga o`lkani sayohat qilish imkoniyatiga ham ega bo`ladi, agar etibor beradigan bo`lsak, ba`zi insonlar borki boshqa yurtga borib sayohat qilishining o`zida sog`ligini yaxshigina tiklab oladi ya`ni unga u yurtda tibbiy xizmatning o`zi kerak bo`lmaydi. Shuning uchun mamlakat kelajagi uchun turizmning sohalarini rivojlantirish eng ahamiyatlisisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.2022-2026 йилларга мулжалланган Янги Узбекистоннинг тараккиёт стратегияси тугрисида" ги Узбекистон Республикаси президентининг фармони ПФ-60 сонли. 2022-йил. 28-январ.
2. Bookman, M. & Bookman, K. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.
- 3.Qudratov G‘.X., Tuxliev I.S. Turizm iqtisodiyoti. – Samarqand, SamISI, 2007.
- 4.. Tariqulov M. O, Nabiyeva S. A “Ekskursiyashunoslik” fani bo`yicha ta’lim texnalaogiyasi. Toshkent 2006 y. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.
5. I.S.Tuxliev, M.Q.Pardaev. Turizmda xizmat ko`rsatishni rivojlantirish aholi bandligini oshirish manbasi. - T., 2008. -18 b.